



# YURISPRUDENSIYA

## HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2023-yil  
MAXSUS SON

*Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga bag'ishlanadi*

VOLUME 3 / SPECIAL ISSUE / 2023

SPECIAL ISSUE DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.3.SI



**Crossref**  
Content  
Registration

ISSN: 2181-1938

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence

# MUNDARIJA

- 5 YAKUBOV SHUXRAT UMMATALIYEVICH**  
Oliy ta'lim tashkilotlari akademik erkinligining  
Konstitutsiya darajasida mustahkamlanishi:  
zarurat va istiqbollar
- 11 AZIZOV XUDOYQUL TOJIYEVICH**  
Ijtimoiy davlatning konstitutsiyaviy asoslarini  
ro'yobga chiqarish – muhim vazifa
- 15 HOSHIMXONOV AHROR MO'MINOVICH**  
Xalqchil davlat qurish, davlat va jamiyat  
boshqaruvi tizimi samaradorligini oshirishda  
fuqarolar ishtirokini kengaytirish masalalari
- 21 AZIMOV HAKIMALI IMOMOVICH**  
Yangilangan bosh qomusimizda inson huquq  
va erkinliklari eng oliy qadriyat sifatida
- 27 SAFAROV DJAXONGIR ISMOILOVICH**  
Zamonaviy konstitutsiyaviy-huquqiy islohotlar  
sharoitida parlament yuqori palatasi faoliyatini  
isloh etish: asosiy tendensiyalar va rivojlanish  
istiqbollari
- 37 ABDULLAYEVA MAFTUNA MUROT QIZI**  
Konstitutsiyaning to'g'ridan to'g'ri amal qilishi  
tushunchasining yuridik tahlili
- 43 JAHONOV SHOHRUH SHUHRAT O'G'LI**  
Jamoatchilik nazoratining muhim subyekti  
sifatida ommaviy axborot vositalarining  
konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari
- 46 TOSHKANOV NURBEK BAHRIDDINOVICH**  
Intellectual mulkning konstitutsiyaviy-huquqiy  
himoyasi va uning ahamiyati
- 57 YULDOSHBEKOV AVAZBEK ALISHER O'G'LI**  
Fuqarolarning soliqqa oid konstitutsiyaviy  
burchlarini ta'minlashda soliq maslahati  
institutining o'rni va ahamiyati
- 63 XAYITOV PANJI BUXAROVICH**  
Yangi O'zbekistonning energetika tizimini  
rivojlantirishning konstitutsiyaviy-huquqiy  
asoslari

- 70 DAVLATOVA GULIZA SHAVKAT QIZI**  
Halol raqobatni rivojlantirish va monopol faoliyatni cheklashning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari
- 75 SHODIYEVA IRISA SOATMUROD QIZI**  
Advokatlar maqomi e'tibor markazida
- 79 KAZAKOVA NOZIMA RUSTAM QIZI**  
The new constitution of Uzbekistan:  
A catalyst for democratic advancement

UDC: 070.431(045)(575.1)

## JAMOATCHILIK NAZORATINING MUHIM SUBYEKTI SIFATIDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING KONSTITUTSIYAVIY-HUQUQIY ASOSLARI

**Jahonov Shohruh Shuhrat o'g'li,**

Toshkent davlat yuridik universiteti mustaqil izlanuvchisi

ORCID: 0000-0002-1119-2250

e-mail: jahonovshohruh@gmail.com

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada ommaviy axborot vositalarining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari tahlil qilingan. Shu bilan birga, ommaviy axborot vositalarining jamoatchilik nazoratini samarali olib borishi atroflicha o'rganilgan. Bilamizki, axborot og'zaki, yozma, elektron tarzda olinadi, shu sababli ommaviy axborot vositalarining axborot olishi bilan bog'liq huquqiy jihatlar tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Konstitutsiya, ommaviy axborot vositalari, axborot, jamoatchilik nazorati.

### КОНСТИТУЦИОННО-ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ СРЕДСТВ МАССОВОЙ ИНФОРМАЦИИ КАК ВАЖНОГО СУБЪЕКТА ОБЩЕСТВЕННОГО КОНТРОЛЯ

**Жахонов Шохрух Шухрат угли,**

самостоятельный соискатель Ташкентского  
государственного юридического университета

**Аннотация.** В данной статье анализируется конституционно-правовая основа средств массовой информации. В то же время разработаны предложения по внесению изменений в Конституцию, чтобы средства массовой информации могли эффективно осуществлять общественный контроль. Известно, что информация поступает устно, письменно и в электронном виде, поэтому проанализированы правовые аспекты получения информации средствами массовой информации.

**Ключевые слова:** Конституция, средства массовой информации, информация, общественный контроль.

### CONSTITUTIONAL AND LEGAL FOUNDATIONS OF MASS MEDIA AS AN IMPORTANT SUBJECT OF PUBLIC CONTROL

**Jakhonov Shokhrukh Shukhrat ugli,**

Independent researcher of  
Tashkent State University of Law

**Abstract.** This article analyzes the constitutional legal foundations of mass media. At the same time, effective public control of mass media is studied in detail. We know that information is received orally, in writing and electronically, so the legal aspects related to the receipt of information by the mass media are analyzed.

**Keywords:** Constitution, mass media, information, public control

Ommaviy axborot vositalari jamoatchilik nazoratining muhim subyekti. Shu bois ular fuqarolik jamiyati qurishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ommaviy axborot vositalarining faoliyatida qancha erkinlik bo'lsa, huquqlari muhofaza qilinsa, jamiyatda ochiqlik va oshkoralik shu darajada ta'minlanadi.

O'zbekistonda ham ommaviy axborot vositalarining huquqlarini mustahkamlash va ularni "to'rtinchi hokimiyat" darajasiga ko'tarishga mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab jiddiy e'tibor qaratildi. 1991-yilda 351 ta OAV faoliyat yuritgan bo'lsa, bugungi kunga kelib ularning soni 2140 taga [1] yetgani ham mamlakatimizda mazkur sohaga qaratilayotgan e'tibor va imkoniyatlardan darak beradi.

Darhaqiqat, ommaviy axborot vositalari faoliyati orqali jamiyatga o'z ta'sirini o'tkazadi. Bu ta'sir jamoatchilik nazoratiga, hokimiyat organlarining qarorlar qabul qilish jarayonida adolat bilan yondashuviga, buzilgan huquqni tiklashga yoki huquqni qo'llash jarayonini amalga oshirishga, qolaversa, odamlarda huquqiy ong va madaniyatni shakllantirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, ommaviy axborot vositalari ayrim siyosiy-ijtimoiy jarayonlar, davlat va jamiyat qurilishi masalalari, shuningdek, qonunlar va hukumat qarorlari loyihalari sharhlaridan jamiyatni xabardor qilish orqali jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi.

1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Konstitutsiyasining 67-moddasida "Ommaviy axborot vositalari erkindir va qonunga muvofiq ishlaydi. Ular axborotning to'g'riligi uchun belgilangan tartibda javobgardirlar. Senzuraga yo'l qo'yilmaydi", deb belgilab qo'yilgan edi. Bunda ko'rishimiz mumkin, bu yerda OAVga huquqdan ko'ra majburiyat ko'proq yuklangan.

2023-yil 1-maydan kuchga kirgan Konstitutsiyaning ikkita moddasi ommaviy axborot vositalariga bag'ishlangan bo'lib, mazkur moddalarda ommaviy axborot vositalarining huquq va erkinliklari Konstitutsiya da-

rajasida to'liq mustahkamlangan, deb aytish mumkin. Jumladan, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 81- va 82-moddalari ommaviy axborot vositalariga bag'ishlangan bo'lib, 81-moddada "Ommaviy axborot vositalari erkindir va qonunga muvofiq ish olib boradilar. Davlat ommaviy axborot vositalari faoliyatining erkinligini, ularning axborotni izlash, olish, undan foydalanish va uni tarqatishga bo'lgan huquqlari amalga oshirilishini kafolatlaydi. Ommaviy axborot vositalari o'zi taqdim etadigan axborotning ishonchligi uchun javobgardir" [2], deb belgilangan.

Ushbu moddada ko'rishimiz mumkin, ommaviy axborot vositalariga bir qancha huquqlar berilishi bilan birgalikda, unga axborotning to'g'riligi uchun javobgarlik ham yuklanmoqda. Shuningdek, mazkur moddadan anglashiladiki, ommaviy axborot vositalarining axborotni izlash, olish va undan foydalanish huquqi davlat tomonidan kafolatlanadi.

Konstitutsiyaning 82-moddasida "Senzuraga yo'l qo'yilmaydi. Ommaviy axborot vositalarining faoliyatiga to'sqinlik qilish yoki aralashish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi", deb belgilab qo'yilgani ularning emin-erkin faoliyat olib borishini ta'minlaydi.

Ma'lumki, ommaviy axborot vositalarining axborotni olish tartibi bor, bu tartibga soha vakillari va jurnalistlar amal qilishi lozim. O'zbekistonning amaldagi qonunchiligiga muvofiq axborot olish quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

1. Yozma.
2. Og'zaki.
3. Elektron [3].

Shuningdek, "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi Qonunning 35<sup>1</sup>-moddasi "Ommaviy axborot vositasining davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyati to'g'risida axborot olishga doir so'rovi" deb nomlanib, unga ko'ra, "Ommaviy axborot vositasi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining faoliyati to'g'risida axborot olishga doir so'rov bi-

lan ularga ogʻzaki yoki yozma shaklda (shu jumladan, elektron hujjat shaklida) murojaat etish huquqiga ega. Ommaviy axborot vositasining davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyati toʻgʻrisida axborot olishga doir, shuningdek, mansabdor shaxslarning intervyusini tashkil etish toʻgʻrisidagi soʻrovi koʻpi bilan yetti kun muddatda koʻrib chiqiladi.

Agar ommaviy axborot vositasining soʻrovini koʻrib chiqish davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining vakolatlari jumlasiga kirmasa, soʻrov soʻralayotgan axborotni taqdim etish oʻzining vakolatiga kiritilgan organga roʻyxatdan oʻtkazilgan kundan eʼtiboran uch ish kuni ichida yuboriladi, ommaviy axborot vositasi esa bu haqda xabardor qilinadi. Soʻrov rad etilgan taqdirda, ommaviy axborot vositasiga asoslantirilgan javob yuboriladi” deb belgilangan.

Bundan tashqari, Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 15-moddasida “Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga ega, toʻgʻridan-toʻgʻri amal qiladi va yagona huquqiy makonning asosini tashkil etadi”, deb belgilangan. Bu esa Konstitutsiyamizning ahamiyatini oshiradi va respublikamizda toʻgʻridan-toʻgʻri amal qilishini taʼminlaydi.

Maʼlumki, Konstitutsiya qonunchilik tizimining eng muhim va asosiy boʻgʻini hisoblanadi. Shu jihatdan olganda, Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ommaviy axborot vositalari faoliyati kafolatlarining aso-

siy tamoyillarini oʻrnatuvchi normalar belgilangan.

Shu oʻrinda aytib oʻtish lozimki, Konstitutsiyada ommaviy axborot vositalarining faoliyatiga toʻsqinlik qilganlik yoki aralashganlik uchun javobgarlik belgilangani bilan Maʼmuriy javobgarlik toʻgʻrisidagi kodeksda va Jinoyat kodeksida ommaviy axborot vositalariga toʻsqinlik qilganlik uchun javobgarlik belgilanmagan. Shu bilan birga, baʼzi hollarda ommaviy axborot vositalari faoliyatiga qonunga xilof ravishda aralashish va toʻsqinlik qilishga urinishlar, jumladan, mansabdor shaxslar tomonidan senzura, tahririyat xodimlariga bosim va tazyiqlar, materiallar va jihozlarni noqonuniy olib qoʻyish holatlari kuzatilib turadi.

Bu borada xalqaro tajribaga qaraydigan boʻlsak, Turkiya, Argentina, Yaponiya Jinoyat kodekslarida, Qozogʻiston Respublikasi, Ozarbayjon Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi Jinoyat va Maʼmuriy javobgarlik kodekslarida javobgarlik belgilanganini koʻrishimiz mumkin.

Shu sababli bunday ishlar uchun javobgarlikni yanada kuchaytirish va Maʼmuriy javobgarlik toʻgʻrisidagi kodeks va Jinoyat kodekslarida ommaviy axborot vositalarining faoliyatiga toʻsqinlik qilganlik yoki aralashganlik uchun javobgarlikni aniq va batafsil belgilash maqsadga muvofiq boʻladi deb oʻylaymiz. Bu esa oʻz navbatida, konstitutsion normaning amaliyotda samarali ishlashini taʼminlaydi.

## REFERENCES

1. <http://www.yumh.uz>
2. Oʻzbekiston Respublikasi qonun hujjatlar toʻplami portali <http://lex.uz>. *Yangi tahrirdagi Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023-yil 30-aprel kuni oʻtkazilgan Oʻzbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingan.*
3. “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasi Qonuni. <http://lex.uz/acts/52268>

# YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2023-YIL  
MAXSUS SON

*Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi  
Konstitutsiyasiga bag'ishlanadi*

VOLUME 3 / SPECIAL ISSUE / 2023

SPECIAL ISSUE DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.3.SI

**BOSH MUHARRIR:**

**Xodjayev Baxshillo Kamolovich**

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, professor, yuridik fanlar doktori

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

**Ergashev Ikrom**

Ilmiy boshqarma boshlig'i, dotsent, yuridik fanlar doktori

**Mas'ul muharrir:** N. Ramazonov

**Muharrirlar:** Sh. Jahonov, F. Muhammadiyeva, M. Sharifova,  
Y. Yarmolik, E. Mustafayev

**Musahhih:** M. Sharifova

**Texnik muharrirlar:** U. Sapayev, D. Rajapov

**Tahririyat manzili:**

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.

**Tel.:** (0371) 233-66-36, 233-41-09.

**Faks:** (0371) 233-37-48.

**Veb-sayt:** www.tsul.uz

**E-mail:** lawjournal@tsul.uz

**Obuna indeksi:** 1387.

Jurnal 20.12.2023-yilda tipografiyaga topshirildi.

Qog'oz bichimi: A4. Shartli bosma tabog'i 10,0.

Adadi: 100. Buyurtma raqami: .

TDYU tipografiyasida chop etildi.